



“MAKTABGACHA TA’LIMDA MUQOBIL TA’LIM SHAKLINING RIVOJLANISHI”

Tursunboyeva Malika G’ofurjon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va Boshlang’ich
ta’lim fakulteti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17657172>

ARTICLE INFO

Received: 11th November 2025
Accepted: 12th November 2025
Published: 20th November 2025

KEYWORDS

Ta’lim, tarbiya,
rivojlanish, barkamol
avlod, innovatsiya, texnologiya,
maktabgacha ta’lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kundan-kunga rivojlanib borayotgan maktabgacha ta’lim tizimiga yangi inovatsion ta’lim shakllarining va texnologiyalarining joriy etilishi, rivojlanish strategiyasining ishlab chiqilishi, chekka qishloqdagi mamlakatimiz aholisi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarini barpo qilinishi va shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta’limda qamrov sonini oshirish, har bir bolani maktabgacha ta’limda mukammal ta’lim va tarbiya olishi uchun ijtimoiy ko’maklashish kabi islohotlar haqida so’z boradi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo’lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilg’or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda maktabgacha ta’lim tarbiya tizimi uchun muqobil dasturlar ishlab chiqilmoqda va amalyotga tatbiq etilganda ijobiy natijaga erishish ko’zda tutilgan. Yangilangan dasturlar bolalarni maktabga yanada sifatli tayyorlashga, ularning intellektual qobiliyati va mantiqiy fikrlash salohiyatini yuksaltirishga oldingidan farqli ravishda yozish va o’qishni yanada yaxshiroq o’rganishga xizmat qilishi nazarda tutilgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

Ta’lim va tarbiyaning muqobil shakli bu - maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida innovatsion ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.

Bugungi kunda har qanday maktabgacha ta’lim tashkiloti o’zgaruvchanlik tamoyiliga muvofiq o’z ta’lim modelini tanlash va pedagogik jarayonni tegishli g’oyalar va texnologiyalar asosida loyihalash huquqiga ega. XXI asr haqli ravishda inson faolyatining eng xilma-xil sohalariga faol joriy etilayotgan innovatsion texnologiyalarning gullab yashnagan asri deb hisoblash mumkin va ular orasida ta’lim tabiiy ravishda eng muhimlaridan biriga aylanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotiga texnologiyalar, innovatsion g’oyalar nafaqat mumkin va zarurdir. 2017-yil sentabr oyida O’zbekiston Respublikasi “ Maktabgacha ta’lim vazirligi ” tashkil etilgandan buyon maktabgacha ta’lim tashkilotlari faolyatini takomillashtirish Prezidentimiz tomonidan davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev Miromonovich “ 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risi”dagi farmonida ham maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish :

-maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratlarini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish,

-2022-2026yillarda 160000dan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish,

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish kabi yuksak maqsadlarni belgilab berildilar. SHuningdek O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Xususan, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan bolalar miqdorini joriy 38,1%dan 80,8%gacha o'rttirish vazifasi qo'yilgan. Bu vazifani amalga oshirish uchun chekka qishloqlardagi mamlakatimiz aholisi uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo qilish ularni farzandlarini ham maktabgacha ta'limga jalb etib ularga shart-sharoitlar yaratib berish ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. SHu asnoda takidlashim joizki, xususiy ya'ni nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham faoliyat ko'rsata boshladi. Bundan maqsad shuki, maktabgacha ta'lim qamrov sonini oshirish va har bir bolani maktabgacha ta'limda mukammal ta'lim va tarbiya olishi uchun ijtimoiy ko'maklashish ilgari surilmoqda. Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bu yurtimiz istiqboli porloq va poydevori bosqichma-bosqich mustahkam bo'lib boryotganidan dalolat beradi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Rivojlanish strategiyasi maktabgacha ta'limda munosib tarzda olib borilishi uchun bizga tarbiyachilarning kasbiy yetukligi, o'z ustida izlanishlar olib boradigan kreativ potentsiali yuqori ekanligi muhim hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyachi muqobil ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tarzda tashkil eta olishi kerak. Ushbu ta'lim shakli turli ijtimoiy sharoitlarda yashovchi oilalarga mos imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida quyidagi muqobil ta'lim shakllari joriy etilmoqda:

1. Oilaviy ta'lim-bola uy sharoitida ota-ona yoki maxsus tayyorlangan pedagog rahbarligida ta'lim-tarbiya oladi.

2. Qisqa mudatli guruhlar- 3-4 soatlik mashg'ulotlardan iborat bo'lib, ota-onalar bant paytda bolani tarbiyalash uchun qulay shakl hisoblanadi.

3. Xususiy bolalar bog'chasi- nodavlat tashkilotlar bo'lib, ular o'z dasturlari asosida ishlaydi, ko'pincha ular zamonaviy xorij metodikalarini qo'llaydi.

4. Mobil (ko'chma) bog'chalar – uzoq hududlarda yashovchi bolalarga ta'lim xizmatlarini yetkazish uchun tashkil etilgan.

5. Onlain va ma'sofaviy ta'lim – zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida tashkil etilib pandemiya davrida keng rivojlandi.

Muqobil ta'lim afzalliklari

Har bir bolaning qobiliyat va ehtiyojiga mos yondashuvni ta'minlaydi, ta'lim jarayoniga innovatsion usullar kiritadi, ota-onalar faol ishtirok etishini ta'minlab oilaviy tarbiyani mustahkamlaydi, ta'lim sifati va shakily tanlash erkinligini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tizimida muqobil ta'lim shakli rivojlanishi – bu bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatini oshiruvchi, zamonaviy pedogogik yondashuvlarga asoslangan samarali tizimdir. U an'anaviy ta'limni to'ldirib har bir bolaga mos individual rivojlanish yo'lini ta'minlaydi. Kelajakda bu yo'nalish ta'lim tizimining yanada takomillashishiga yosh avlodning har tomonlama barkamol bo'lib ulg'ayishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. TURAKULOVNA M. F., QIZI M. M. M. COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE ORGANIZATION OF VISUAL ACTIVITIES //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №.

- 2.- C. 100-103. 2. Muhammadiyeva F. T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities //European research. – Т. 1. – С. 75.
- 3.Turakulovna M. F. MAKTABGACHA TA'LIMDA TEXNOLOGIYA TA'LIMI: BOLALARGA ARTEFAKTLARDAN FOYDALANISH VA YARATISH IMKONIYATLARINI TA'MINLASH: Muhammadiyeva Feruza Turakulovna, Termiz davlat pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasida o'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 2. – С. 180-182.
- 4.Aziza C. BOLALAR ADABIYOTI NAFOSAT TARBIYASINING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA: Cho'nbayeva Aziza, maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti //Научно-практическая конференция. – 2022. – С. 1122- 1124.
- 5.Muhammadiyeva F. THE ROLE OF PEDAGOGICAL WORKERS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 94- 96.
- 6.Muhammadiyeva F., Muyassar E. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING XOTIRASINI KUCHAYTIRISH USULLARI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 28. – №. 5. – С. 54-59.
- 7.Muhammadiyeva F. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARI TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH YO'LLARI //Interpretation and researches. – 2023. – Т. 2. – №. 1. 8. Muhammadiyeva F. THE ROLE OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN SOCIAL ACTIVITIES WITH CHILDREN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 225-227.
- 8.Muhammadiyeva Feruza AS A FACTOR OF EDUCATION- SOCIALIZATION Web of Scientist: Международный научный исследовательский журнал , 4 (04), (2023). 427- 442. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/M9KQ>
- 9.Muxabbat Berdieva, Feruza Muhammadiyeva, Malika Jumaeva, Lola O'tasheva. Beneficial effect of walnuts on brain activity.BIO Web Conferences.-1-9, 2024 11.Muhammadiyeva Feruza To'raqulovna .FUNDAMENTALS OF THE FORMATION OF THE COMPETENCE OF SOCIAL DEVELOPMENT OF EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. "Экономика и социум". 2024 yil
- 10.Чориева С. Ч. и др. ИГРА КАК ВЕДУЩАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РЕБЕНКА ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 138-140.
- 11.Чориева С. Ч. УМЕНИЕ УЧИТЕЛЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ УЧАЩИХСЯ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ //Экономика и социум. – 2024. – №. 10-2 (125). – С. 998-1001.
- 12.Choriyeva S. C. TALABALARNI TA'LIMIY QADRIYATLAR ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNI RIVOJLANTIRISH TIZIMI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4 SPECIAL. – С. 1177-1181.
- 13.Choriyeva S. MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI //Физико-технологического образование. – 2022. – №. 4.
- 14.Choriyeva S. DIDACTIC OPPORTUNITIES OF THE NATIONAL CURRICULUM FOR MOTHER TONGUE AND READING LITERACY IN PRIMARY SCHOOLS //Conferencea. – 2022. – С. 527-529.